

JIZZAX VILOYATI EKOLOGIK HOLATI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

G'ο'dalov Mirkomil Ravshanovich

JDPU Geografiya va iqtisodiy bilimlar asoslari kafedrası mudiri, dotsent.

Ravshanov Ramozon Sobir o'g'li

GulDU Ekologiya va geografiya kafedrası o'qıtuvchisi

Annatsiya. Maqolada Jizzax viloyati ekologik sharoiti va unga ta'sir etuvchi omillar, ularning oqibatlari yaxshilash masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar. ekologiya, suv, sel, surilma, o'simlik, hayvon, tabiat muhofazasi, resurs, cho'l, chala-cho'l.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы улучшения экологического состояния Джизакской области и факторы, влияющие на это, а также их последствия.

Ключевые слова. экология, вода, наводнения, оползни, растения, животные, охрана природы, ресурсы, пустыня, полупустыня.

Annotation. The article discusses the issues of improving the ecological conditions of the Jizzakh region and the factors affecting it, as well as their consequences.

Key words. ecology, water, floods, landslides, plants, animals, nature protection, resources, desert, semi-desert.

Kirish qismi: Yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chiqarilgan barcha Oliy Majlis qonunlari, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ko'rsatmalari va boshqa me'yoriy hujjatlari o'z vaqtida bajarilishi va ularga amal qilinishi lozim. Ushbu qonun va qarorlarni bilish va unga rioya etish bu qonunlarga hurmat tabiatga ham hurmatni bildiradi.

Asosiy qismi: Jizzax viloyatining atrof-muhitini muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda aholining bu boradagi madaniyatini yuksaltirish bo'yicha harakatlar amalga oshirilmoqda. Shu asosda ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, jamoatchilik ekologik nazorati tizimini rivojlantirish, jamoatchi inspektorlarni o'qitish va ular malakasini oshirish, chiqindilar bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha bir qator samarali ishlar

olib borilmoqda. Hozirgi paytda ularning sohaga oid bilim va malakasini oshirish choralari ko'rilmoqda.

Jizzax viloyati ekologik xavfsizlikni ta'minlash shuningdek, sanoat, avtotransport chiqindilari eng kam xavfsiz ko'rsatkichlarga qadar kamaygan bo'lishi, ikkilamchi resurslar to'liq qayta ishlanib ulardan foydali elementlar ajratib olinishi zarur. Eng muhimi isrofgarchilikka chek qo'yilib, tabiatdan ehtiyojga yarasha boyliklarni ajratib olib, chiqindilarni chiqarmaslik tamoyilida ish tutishga o'tishdan iborat. Tabiat resurslarini qayta tiklash, kamayib borayotganlaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, bu borada muqobil variantlar, yani o'rni bosadigan boshqa resurslardan foydalanishga o'tish kabi tamoyillarni barcha joylarda, hamma ishlab chiqarish korxonalarida qo'llashga o'tish tabiatni asrash, uni e'zozlash o'z navbatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashni kafolatlaydi.

So'nggi yillarga Jizzax viloyatini janub tomonidan o'rab turgan tog'lardagi o'rmonlarning siyraklashib, ayrim noyob o'simlik va hayvonot dunyosi vakillari yo'qolib borayotganligi sel, surilma hodisalarining tez-tez ro'y berishi oqibatida favqulodda holatlarning ko'payishiga va ekologik muammolarni vujudga keltirmoqda.

Tabiiy boylik hisoblangan suv, havo, tuproq, o'simlik, hayvonot olami, foydali qazilmalar insonning yashashi va ishlab chiqarish faoliyati uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Jizzax viloyati respublika miqyosida tabiiy resurslarga nisbatan boy bo'lgan mintaqalardan hisoblanadi. Mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish suv va havoni toza saqlash, tuproq eroziyasining oldini olish, o'simlik va hayvonot olamini tabiiy holicha saqlab qolib, keyingi avlodlarga yetkazish viloyat aholisining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Viloyatdagi eng muhim va tanqis bo'lgan tabiiy resurslardan biri ichimlik suvi hisoblanadi. Suv - juda qimmatbaho xususiyatlarga ega mineral boylik bo'lib, hozirgi vaqtda suv qimmatbaho sanoat xomashyosiga aylanib qoldi. Viloyat hududi kontinental iqlimi cho'l, chala cho'l, tog' oldi dasht, qisman tog'larda joylashganligi sababli suv juda qadimdan jiddiy muammo bo'lib kelgan. Mutaxassislar tomonidan viloyat hududida, asosan neogen va to'rtlamchi davr yotqiziqlarida joylashgan yer osti ichimlik suvi havzalari aniqlangan va u viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini bermoqda. Yer osti ichimlik suvi havzalari asosan tog'li hududlarda joylashganligi bois, viloyatning cho'l zonasidagi aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash ancha qiyin va dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababdan, mavjud ichimlik suvlardan tejab-tergab, oqilona va samarali foydalanish uchun, sanoat korxonalarida foydalanilayotgan suvlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida tozalash, suvdan foydalanishning aylanma suv ta'minotiga o'tishi, qishloq xo'jaligida suv sarfini me'yor darajasiga keltirish

uchun sug'orish tarmoqlarini doimiy nazorat qilib, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda yangi texnologiyalardan foydalanish, kollektor va drenaj suvlari tarkibida suvni ifloslaydigan har xil erigan tuzlar, paxta va boshqa ekinlarga sepilgan turli xil zaharli moddalar eritmasi mavjud, mana shu zovur-drenaj suvlarini alohida joyga to'plab, ularni toza suv bilan aralashib ketishiga chek qo'yish, shahar va qishloq aholi punktlarini toza ichimlik suvi bilan bir maromda ta'minlash uchun, ichimlik suvidan sug'orish uchun foydanish, avtotransport vositalarini yuvish, suv qurilmalarining nosozligi tufayli ichimlik suvini isrof qilish kabi ishlarni qat'iyan taqiqlash chora tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, falokatli suv ko'p bo'lgan 1969-yilda Chordara suv omboridan 21 km² suvni tashlash natijasida shakllangan, vaqt o'tishi bilan Arnasoy, Aydarko'l va Tuzkonning umumiy suv hajmi 22 km² va maydoni 2500 km² bo'lgan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimini tashkil qildi.

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi ko'plab qush va hayvonlar uyalaydigan joyga aylandi, ovchilik va baliqchilik rivojlandi. 1993-yildan boshlab Qirg'iziston Respublikasi To'xtagul suv ombori sug'orish tartibidan energiya tartibiga o'tdi. Natijada Aydar-Arnasoy ko'llar tizimiga 1994-yil 9km³ dan ortiq Sirdaryo suvi tashlandi. Oqibatda 120 ming gektardagi yaylovlarni, quduq, dam olish mintaqalari hamda baliq ovlanadigan joylarni suv bosdi. 2005-yilda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi eng yuqori hajmga 44,19 km³ ga yetdi. 1993-2006-yillar oralig'ida Arnasoy pastligiga 38,635 km³ chuchuk Sirdaryo suvi tashlandi. 2007-yilda Arnasoyga umumiy suv tashlanishi qariyb 200 mln m³ ni tashkil etdi. Hozirda suvning minerallashuvi har litrda 8g atrofida. Agar ko'llar tizimiga suv tashlanishi to'xtatilsa, suv sathi 0,4-0,6 m ga pasayadi. Yiliga suv havzasi sathidan 1250 mm suv bug'lanishi suvning minerallashuvini keyinchalik yiliga o'rtacha taxminan har litrda 300 mm ga yetishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'lga yiliga qo'shilayotgan kollertor-zovur suvlari miqdori 1,8-2,4 km³. Agar havzaga 4 km³ dan ortiq suv tashlansa, suv sathi kamida 0,5 (mutlaq balandlik 250 m gacha) ko'tarilishiga va 200 km² maydonni suv bosishiga olib kelishi mumkin. Bu omillar Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekologik tang vaziyatni vujudga keltiradi, natijada mintaqaning katta hududlari ekotizimlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hayvonlar, ayniqsa qushlar migratsiyasi izdan chiqadi.

Xulosa qismi: Viloyat hududidagi barcha tabiiy resurslarni himoya qilish, ulardan unumli va oqilona foydalanish uchun hozirgi davrda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- Viloyat hududida mavjud bo'lgan barcha korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini hozirgi ekologik talab darajasida takomillashtirishi zarur;

- Sanoat, maishiy va uy-ro'zg'or chiqindilarini o'z vaqtida olib chiqish, qayta ishlash va ularni sanitariya va gigiyena talablari asosida bartaraf etish lozim;
- Kelajakda qurilayotgan har qanday ishlab chiqarish korxonalarini hamda aholi turar joylarini ekologik nuqtai nazardan to'g'ri joylashtirish zarur;
- Aholining ekologik madaniyatini oshirish maqsadida, mavjud ekologik ta'lim va tarbiya tizimidan to'g'ri va oqilona foydalanish lozim;
- Qadimiy an'ana va urf-odatlardan kelib chiqqan holda, kelajak avlodni atrof-muhitni asrab-avaylaydigan, tabiatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalash.

Umuman olganda, viloyat hududidagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy landshaftlarni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatini saqlash, har qanday salbiy o'zgarishlarga yo'l qo'ymaslik, tabiatning xushmanzara va diqqatga sazovor joylarini asrab-avaylash, tabiiy resurslarni saqlash va ko'paytirish maqsadida viloyat hududida qo'riqxonalar, buyurtmalar va milliy tabiiy bog'lar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar

1. Hakimov Q.M., Adilova O.A. Jizzax viloyati geografiyasi. Fan va texnologiyalari. Toshkent. 2015 y
2. G'o'dalov M.R. Jizzax viloyati tabiatini muhofaza qilish. Toshkent 2013 yil
3. A.N. Xodjimatov, N.R. Alimqulov, Sh.A.Xolmurodov, M.E.Djurayev. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent 2020
4. L.A. Alibekov, Inson va tabiat. Samarqand 2020
5. Hakimov. N. H, Hamdanov Sh.R, Rajabov N.R. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. Toshkent 2006
6. Xodjimatov A.N, Xolmurodov Sh.A, Axunboboyev M.M, Zikirov I. Ya, Sattorov S.M. Iqlim o'zgarishi va cho'llanish muammolari. Toshkent 2020